

MAKTABLARDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Akbaraliyeva Mohlaroyim Abdujalil qizi

Namangan davlat Pedagogika institute magistranti

E-Mail address: ahmadjonovamohlaroyim53@gmail.com

Abstrakt: Mazkur tadqiqot maktablarda inklyuziv ta'limni amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarning ushbu yondashuv haqidagi tasavvurlari, mavjud kuchli va zaif jihatlari hamda uni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot Booth va Ainscow tomonidan ishlab chiqilgan Inklyuzivlik indeksiga (2000) asoslangan bo'lib, tavsiflovchi miqdoriy yondashuv doirasida Likert tipidagi 70 ta savoldan iborat so'rovnoma qo'llanildi. Ushbu savollar inklyuziv madaniyatlar, siyosatlar va amaliyotlar kabi uch asosiy o'lchov bo'yicha tuzilgan. Tadqiqotda mamlakatning turli hududlaridan jalb etilgan 102 nafar o'qituvchi ishtirok etdi, olingan ma'lumotlar esa SPSS dasturi yordamida tavsiflovchi statistika asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Inkluziv ta'lim, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy ta'sir, inkluziv savodxonlik

«Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas.

Unga hurmat bilan munosabatda bo'lish va munosibda

bo'lish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim».

Mariya Sibulskaya

Kirish: Ushbu tadqiqot o'qituvchilarning maktablarda inklyuziv ta'lim haqidagi tasavvurlarini tahlil qiladi, kuchli, zaif tomonlarini va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlaydi. Metodologiya: Booth va Ainscow Inklyuzivlik indeksiga (2000) asoslangan Likert tipidagi so'rovnoma yordamida tavsiflovchi miqdoriy yondashuv qo'llaniladi, unda 70 ta element uch o'lchovda taqsimlangan: inklyuziv madaniyatlar, siyosatlar va amaliyotlar. Namuna mamlakatning turli mintaqalaridan kelgan 102 o'qituvchini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar tavsiflovchi statistika yordamida SPSS yordamida qayta ishlanadi. Natijalar: O'qituvchilar inklyuzivlik haqida ijobiy tasavvurga ega bo'lib, maktab mehmondo'stligi, institutsional sadoqat va o'qituvchilar ishtirokini ta'kidlaydi. Biroq, gender xilma-xilligiga nisbatan past sezgirlik, jismoniy kirish muammolari va til va jamoat resurslarining sust integratsiyasi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Munozaralar: Garchi yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, tarkibiy va madaniy to'siqlar to'liq inklyuziyani cheklaydi. O'qituvchilarni tayyorlash, institutsional xabardorlik va infratuzilmani yaxshilash juda muhimdir. Xulosa: Inklyuziv, teng va xilma-xillikka do'stona muhitni ta'minlash uchun o'qituvchilarni

tayyorlashni kuchaytirish, xabardorlikni oshirish strategiyalarini amalga oshirish va maktablarning jismoniy holatini yaxshilash kerak.

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim tizimlarini insonparvarlashtirish, barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajribada inklyuziv ta'lim nafaqat alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarni umumiy ta'lim maktablariga integratsiya qilish, balki har bir bola o'z qobiliyati, sur'ati va rivojlanish darajasidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olishi kerak¹⁷ degan tamoyilga asoslanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limning mohiyati va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar B.K.Abidov, M.Yu.Ayupova, M.N.A'zamova, M.M.Berdiyeva, G.N.Ibragimova, F.U.Qodirova, Yu.V.Melnik, L.R.Mo'minova, N.Musayeva, D.A.Nazarova, D.A.Nurkeldiyeva, N.X.Raxmonkulova, tomonidan aqli zaif bolalarning psixologik xususiyatlari, aqli zaif bolalarni ona tiliga o'rgatish, maktabga nutqiy tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish masalalari o'rganilgan.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim yondashuvining xalqaro tajribasi ta'lim tizimining insonparvarlik asosida rivojlanayotganidan dalolat beradi. Jumladan, rivojlangan davlatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Avstriya, Norvegiya, Italiya va boshqalarda inklyuziv ta'lim ancha ilgari joriy qilingan bo'lib, ularning huquqiy-me'yoriy bazasi va amaliy tajribasi o'ziga xos shakllangan. Masalan, AQShda 1979-yildan boshlab qabul qilingan “Barcha nogiron bolalar uchun ta'lim” to'g'risidagi qonun doirasida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqi qonunan kafolatlangan. Shu orqali mamlakatda inklyuziv ta'lim nafaqat rasmiy siyosatga aylangan, balki ijtimoiy adolat va inson huquqlari mezonlariga hamohang ravishda rivojlantirilib kelmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi inklyuziv ta'lim doirasida sinfdagi o'zaro ta'sirlarning ahamiyatini va ularning o'rganish bilan bog'liqligini ta'kidlash edi. Ushbu o'zaro ta'sirlar ijtimoiy-emotsional rivojlanishni osonlashtiradi va barcha o'quvchilarning o'quv jarayonlarida ishtirokini rag'batlantiradi. Ushbu tadqiqot maqsadiga erishish uchun PRISMA metodologiyasi (Page va boshqalar, 2021) sinfdagi o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni rivojlantiradigan pedagogik amaliyotlarni ko'rib chiqadigan akademik tadqiqotlar namunalaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni nomlash usullari.

1-jadval

Termin	Izoh
Imkoniyati cheklangan bola.	Umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi cheklovlariga

¹⁷ UNESCO. *The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education*. Paris: UNESCO, 1994.

Termin	Izoh
	ega bolalarni qamrab oladi.
Maxsus yordamga muhtoj bola.	Moslashtirilgan ta'lim yoki yordamga ehtiyoji bor bola.
Maxsus ehtiyojli bola.	Ta'lim jarayonida qo'shimcha vosita yoki sharoit talab etiladigan bola.
Aqliy rivojlanishida muammoli bola.	Bosh miyaning organik shikastlanishi natijasida aqliy rivojlanishi cheklangan bola.
Ko'rishda muammoli bola.	Ko'rish qobiliyati zaif yoki yo'q bola.
Harakatlanishida cheklovli bola.	Harakat va muvozanat buzilishlari bilan tavsiflanadigan bola.
Eshitishda cheklovli bola.	Eshitish qobiliyati pasaygan yoki kar bola.

Ayniqsa, alohida e'tibor va yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi, kundalik ehtiyojlarini mustaqil qondira olish, sog'lom muhitga qo'shila olish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda bu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ular sog'lom tengdoshlari bilan birga o'qib, do'stona munosabatlar o'rnatadi, darslarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatadi, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Inklyuziv ta'limning amaliyotga joriy etilishi jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bu ta'lim shakli orqali ularning sog'lom tengdoshlari bilan birga o'qishlari, teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari, o'z ijtimoiy mavqeini shakllantirishlari uchun zarur pedagogik va psixologik sharoitlar yaratilmoqda. Zamonaviy ta'limda inklyuziv texnologiyalarni samarali tatbiq etish uchun quyidagi ta'rifga tayanuvchi yondashuv muhim deb topilgan:

"Inklyuziv ta'lim texnologiyasi – bu doimiy yangilanib boruvchi ta'lim tizimida maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun insonparvarlik asosida shakllantirilgan, individual yondashuvga ega, moslashtirilgan, maxsus metodlar va vositalarga tayanuvchi zamonaviy ta'lim jarayonidir."

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — har bir bola o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi, jamiyatda faol ishtirok etishga tayyor bo'lishi va ijtimoiy tenglik tamoyillari asosida rivojlanishi uchun imkon yaratishdir. Bu yondashuv shuningdek, ta'lim tizimining demokratiklashtirilishi va inson huquqlarining amalda ta'minlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jahon miqyosida dolzarb masalaga aylangan bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, "Sifatli ta'lim" (4-maqсад) bilan hamohang ravishda ilgari surilmoqda. Inklyuziv ta'lim modeli nafaqat ta'lim tizimining adolatli va ochiqqligini ta'minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va inklyuziya

tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati bir qator muhim vazifalarni hal etish orqali namoyon bo'ladi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, **inclusif**- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgano'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi. Avvalo, bu tizim imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun ta'lim muassasalarida zarur bo'lgan psixologik-pedagogik va korreksion muhitni shakllantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, ularning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan umumta'lim dasturlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ruhiy-psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini rag'batlantirish bilan uzviy bog'liqdir.


Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning teng ta'lim olish huquqini ta'minlab, nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini jamiyat va oila bilan hamkorlikda qondirishga, ularni erta yoshdan boshlab ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limning pedagogik asosi, avvalo, ta'limning insonparvarlik tamoyili bilan bog'liq. Har bir o'quvchi — jamiyatning to'laonli a'zosi va ta'lim olishga teng huquqli shaxsdir. Shuning uchun maktab o'quvchilarning imkoniyati, ehtiyoji va rivojlanish sur'atlariga moslashadigan muhit yaratishi lozim. Inklyuziv muhit — maktabdagi barcha o'quvchilarni teng qabul qiluvchi, mos sharoitlar bilan ta'minlovchi tizimdir. Bunda quyidagi pedagogik shartlar muhim:

inkluziv ta'limning eng muhim pedagogik omili — bu o'qituvchidir. O'qituvchi: maxsus pedagogika asoslarini bilishi, yosh va psixologik xususiyatlarni tushunishi, individual rejalashtirishni amalga oshira olishi, ota-ona va psixolog bilan hamkorlik qilishi, baholashning moslashtirilgan usullaridan foydalanishi kabi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Har bir o'quvchining psixologik rivojlanish darajasi farqli bo'lgani uchun o'qitish jarayoni shaxsiy xususiyatlarga moslashtiriladi.

Tajribalar va so'rovnomalar matematik statistik tahlil qilindi va ko'rsatkichlar diagrammada aks ettirildi.

Tajriba so'nggidagi samaradorlik ko'rsatkichlari



Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zaro hamkorlikda o'rganadi, muammolarni birgalikda hal etadi va bir-biridan bilim oladi. Bu yondashuv biryoqlama emas, balki ikki tomonlama interaktiv munosabat asosida quriladi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'ziga ishonch, faollik, mustaqil harakat va qaror qabul qilish imkoniyatini oshirishda oilaviy muhitning roli ham muhimdir. Ota-onalar inklyuziv jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, bolalarning jamiyatda to'laonli shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Inklyuziv ta'limni joriy etish maktab faoliyatining barcha bosqichini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Pedagogik asoslar — o'qitish metodlari, individual yondashuv va moslashtirilgan ta'lim jarayonini ifodalasa, psixologik asoslar — o'quvchilarning emotsional holati, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuv jarayonini belgilab beradi. Inklyuziv ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yish har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratadi va maktabning insonga yo'naltirilgan modelini mustahkamlaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda inklyuziv ta'limning o'rni beqiyosdir. Inklyuziv ta'lim tushunchasining rivojlanishi va amaliyotga joriy etilishi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Barcha bolalarning, jumladan jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning ham, teng huquqli ta'lim olishiga oid yondashuvlar jamiyat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida qabul qilingan qonunlar va davlat dasturlari, xususan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va

“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish” qarorlari bu boradagi islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi.¹⁸ Inklyuziv ta’lim orqali imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim maktablarida sog’lom tengdoshlari bilan birgalikda o’qishlari, ijtimoiy moslashuv ko’nikmalarini shakllantirishlari va mustaqil hayot kechirishga tayyorlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalarni qo’llab-quvvatlash, balki butun ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, har bir bolaning salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Unda shaxsning individualligi, mustaqil fikri va imkoniyatlariga hurmat bilan yondashish asosiy tamoyil sifatida belgilanadi. Xalqaro tajriba, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlari misolida ko’rib chiqilganda, inklyuziv ta’limni rivojlantirishda uzluksizlik, tizimlilik va kompleks yondashuv muhim o’rin tutadi.

Shuningdek, didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish, pedagogik-psixologik ko’makni kuchaytirish, oilalar va jamiyat bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish orqali inklyuziv ta’limning sifatini oshirish mumkinligi ta’kidlandi. Xususan, moslashtirilgan o’quv materiallari, texnik vositalar, differensial yondashuvlar va psixologik-pedagogik yordam inklyuziv muhitda o’qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Inklyuziv ta’lim tizimi O’zbekiston ta’lim siyosatining ajralmas qismiga aylanib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun yangi hayot eshiklarini ochmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu jamiyatda har bir bolaga, ularning imkoniyatlaridan qat’i nazar, barobar sharoit yaratish demakdir. Shunday yondashuv asosida olib borilgan amaliy-tajriba ishlari shuni ko’rsatdiki, moslashtirilgan o’quv metodikalari va kasbiy yo’naltirilgan ta’lim dasturlari alohida ehtiyojli o’quvchilarda o’ziga bo’lgan ishonch, kelajak kasbiga nisbatan aniq tasavvur va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu esa kelajakda inson qadri va huquqlari ustuvor bo’lgan adolatli va farovon jamiyatni shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova F.U, Pulatova D.A Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022
2. Achilova S.J. Inklyuziv muhitda ta’lim tashkil etish. – Andijon: ADU, 2023.
3. Ahmedova Z. Kasbiy motivatsiya asoslari. – Farg’ona: FDU, 2021.
4. Ayupova M.Yu. Maxsus pedagogika. – Toshkent: O’qituvchi, 2020. – 158B
5. A’zamova M.N. Psixologik-pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: TDPU, 2019.
6. Xakimova, S. (2025). Alohida ta’lim ehtiyojiga ega o’quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(11).

¹⁸ O’zbekiston Respublikasi Qonuni «Ta’lim to’g’risida», O’RQ-637-son, 23 sentyabr 2020.

7. Berdiyeva M.M. Kasbiy tayyorlovning pedagogik asoslari. – Samarqand: SamDU, 2017.
8. Dadaxo‘jayeva N. Bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
9. Xakimova, S. S. Q. (2023). TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 785-790.
10. Hamidova M.P. O‘quvchilarning psixologik holati. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
11. Ibragimova G.N. Inklyuziv maktablar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2021.